

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

3

2025

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 4, 2025**

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //  
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //  
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

<i>A. Karimov, M. Muxammadjonova</i> Функциональные различия слов отрицаний «别» и «不要» в контексте употребления.....	5
<i>M. Dustmurodov</i> <i>Qara</i> leksemasining qadimgi turkchadagi etno-sotsionimik (determinativ) funksiyasiga doir (Tayhar-Chuluu bitigidagi <i>qara baş</i> oʻrnagida).....	13
<i>Sh. Asgarova</i> “Alpomish” dostonida leksik-semantik guruhlarining tahlili masalalari.....	31
<i>A. Diniqulov</i> Arab maqol-matallarida feʼllarning semantik xususiyatlari.....	36
<i>U. Saidov</i> Transfer nazariyasining asoslari va zamonaviy tarjimashunoslikdagi yondashuvlar.....	43

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //  
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //  
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

<i>M. Pulatova</i> Arbaʼinlarda kurʼoni karim va hadis maʼnolarining aks etishi .....	59
<i>F. Mahmadrabobov</i> Badr Chochiy devonining Eronda saqlanayotgan qoʻlyozma va toshbosma nusxalari .....	69
<i>Sh. Bazarbayeva</i> Turkiston general-gubernatorligining veterinariya strategiyasi: Buxoro va Xiva xonliklari bilan chorvachilik aloqalari tahlili (XIX asr oxiri) .....	86

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //  
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //  
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

<i>M. Saliyeva</i> Markaziy osiyo xalqlari madaniyatining shakllanishida ijtimoiy kommunikatsiyalarning oʻrni.....	98
<i>M. Kasimov</i> Xalqaro munosabat shakllaridan biri – tizimli xavf-hatar va qarshi muvozanatlarni oʻrganishning nazariy asoslari.....	109
<i>A. Puzayev</i> Проблема сохранения национальной идентичности арабских стран в условиях глобализации.....	119
<i>A. Mamadjonov</i> Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida “yumshoq kuch”ning oʻrni.....	133
<i>R. Elmuratova</i> Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashish tajribasi.....	148
<i>A. Abdulxayev</i> Xitoyda modernizatsiya jarayonlarining siyosiy va ijtimoiy jihatlari.....	160
<i>Sh. Salimov</i> Koreya respublikasi siyosiy partiyalarini faollashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli .....	171
<i>O. Gʻaybullayev</i> Mintaqaviy barqarorlik va energetika siyosati: Markaziy Osiyo tajribasi.....	184



5. Гак В. Г. Введение в сопоставительное языкознание. — М.: Изд-во МГУ, 2000. — 336 с.
6. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. — М.: Изд-во МГУ, 2000. — 328 с.
7. Лю Шаоцин. Грамматика китайского языка. — М.: Гиппо, 2001. — 392 с.
8. Ляо Чэнчжун. Практическая грамматика китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 512 с.
9. Норман Джерри. Китайский язык. / Пер. с англ. под ред. М. В. Бибилова. — М.: Лингвистическая книга, 2015. — 384 с.
10. Малявина Е. В. Синтаксис современного китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 224 с.
11. Хуан Шаосин. Современный китайский язык. Том 2: Грамматика. — Пекин: Пекинский университет, 2007. — 398 с.
12. Li, Charles N., Thompson, Sandra A. Mandarin Chinese: A Functional Reference Grammar. — Berkeley: University of California Press, 1981. — 611 p.

**“QARA” LEKSEMASINING QADIMGI  
TURKCHADAGI ETNO-SOTSIONIMIK (DETERMINATIV)  
FUNKSIYASIGA DOIR  
(Tayhar-Chuluu bitigidagi qara baš o‘rnagida)**

**MA’RUFJON DUSTMURODOV**

*Dotsent, PhD, TDSHU*

*ORCID: 0009-0003-4954-9504*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy bitiglarda keng qo‘llanilgan qara leksemasining faqat rang nomi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-sotsial, etnoleksema va atributiv funksiyalarni bajargan ko‘p qatlamli til birligi sifatida namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Turk runik yozma yodgorliklarida, xususan, O‘rxun-Yenisey davri matnlarida qara so‘zi oddiy rang nomidan tashqari, muhim ijtimoiy-semantik marker sifatida ham xizmat qilgan. Maqolada aynan shu o‘ziga xos vazifaning mohiyatini ochish maqsadida Tayhar-Chuluu bitigidagi qara baš birligi markaziy tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Shuningdek, qara so‘zining qadimgi turkchadagi atributiv ma‘nosi va jamiyat qatlamini belgilovchi determinativ funksiyasini keng yoritishi maqsadida shubu davrga tegishli boshqa bitiglardagi mazkur so‘z bilan aloqador qo‘llangan etnoblirliklarga ham murojaat qilinadi. Tahlil jarayonida qara leksemasining qadimgi turk jamiyatidagi avom omma, oddiy xalq, quyi qatlam va keng ijtimoiy massani anglatuvchi, shuningdek, ba‘zi o‘rinlarda oliy maqomdagi shaxs nomlari oldidan kelib, ularga yuqori darajadagi maqomlarni yuklovchi atoviy epitet sifatidagi qirralari yoritib beriladi. Shu bilan birga, qara‘ning*



bunday qoʻllanishi turkiy madaniy anʼanalardagi rang-simvolik qarashlar, etnosotsial soʻz yaratish jarayoni bilan bogʻlanib, uning metaforik, pragmatik va sotsiolingvistik yuklamalari izohlanadi. Maqolada qara baš birligi qiyosiy-tarixiy va leksik-semantik jihatdan tahlil qilinib, bu birlikning bitigda muayyan ijtimoiy guruh yoki tuzilmaning avom qismi sifatida taʼriflangan qatlamni belgilashi koʻrib oʻtiladi. Shu bilan birga, qara atamasining turli qadimgi manbalardagi parallel qoʻllanishlari ham koʻrib chiqilib, uning arxaiik determinator sifatida shakllangan barqaror tizimli birlik ekani taʼkidlanadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, qara qadimgi turk jamiyatida faqat rang nomini emas, balki ijtimoiy tabaqalanish, xalq massasining ifodasi, siyosiy-ijtimoiy rollarni ajratish mexanizmini belgilagan muhim til birligi boʻlgan. Shu jihatdan, qaraʼning determinativ funksiyasi turk runik yozuvlari tilidagi jamiyatni nomlash, iyerarxiyalash va etnosotsial tuzilmalarni tilda aks ettirish jarayonlarining muhim koʻrsatkichi sifatida baholanadi.

**Kalit soʻzlar.** Turk-runik yozuvi, Xoyt Tamir (Tayhar Chuluu) bitigi, epitaftiya, qadimgi turkiy til, qara, qara baš, qara qamuy budun, qara igil budun, konnotatsiya, epitet.

**Kirish.** Qadimgi turkiy tilga oid yodnomalarning joylashuvi va turlari juda xilma-xil boʻlib, odatda ular sunʼiy ishlov berilgan toshlarga bitilgan. Xususan, Kul Tegin, Bilga xoqon, Toʻnyuquq, Kuli Choʻr, Moʻyun Choʻr kabi, lekin shunday bir guruh bitiglar borki, ular togʻ yoki tepalik yonbagʻirlariga bitilgan. Ana shunday yozuvlar sirasiga Qamchiq/Qoyaboshi (Y 24), Tepsey tepaligi va Moʻgʻulistonning Xoyto Tamir hududida joylashgan Tayhar qoyasi (Tayhar Chuluu) majmuasi kiradi. Bitig VI-IX asrlarga oid boʻlib, “Xoyt Tamir bitiglar”, “Tayhar qoya bitiglar” nomi bilan ataladi. Bitig Moʻgʻulistonning Arxangay viloyati, Ix-tamir soʻmi, Xoyt Tamir daryosidan janubi-sharqda joylashgan, balandligi 39 m boʻlgan Tayhar qoyasida topilgan. Tayhar yozuvlari qoyalarda joylashgan. Ammo keyinroq oʻtkinchilar qadimiy turkiy bitiglar ustiga ismlarni va boshqa soʻzlarni turli boʻyoqlardan qalin qatlamda yozib qoʻygani bois, aksariyat yozuvlar saqlanib qolmagan. L.Bazinning taʼkidlashicha ilk yozuvlar VIII asr oʻrtalariga oid (Bazin 1991, 220-221). Moʻgʻulistondagi Xoyto-Tamir yoki Tayhar-Chuluu yozuvlari Arxangay Aymak, Ixtamir sumida joylashgan. Moʻgʻulcha Tayhar-Chuluu nomi yozuvlarni oʻz ichiga olgan katta tosh massasi nomidan kelib chiqqan boʻlib, yozuvlar mintaqada yashagan deyarli barcha xalqlar tomonidan turli xil alifbolarda yozilgan. “Bu yerda runik, soʻgʻd, uygʻur, moʻgʻul, tibet, manjur, qadimgi oyrot va xitoy yozuvlarida 200 ga yaqin bitig mavjud” (Azzaya 2012, 61-68) boʻlib, ulardan eng qadimgisi runik matnlardir. Yozuvlar qora va qizil siyohlarda, maxsus yozuv qurollari yordamida yozilgan va “toshdagi yozuvlar yaratilganidan beri oʻzining rang berish xususiyatini yoʻqotmaganligidan kelib chiqib, toshda boshqa texnologiya qoʻllangan boʻlishi ham mumkin. Ularning XII asrdan ortiq toʻgʻridan toʻgʻri quyosh nuri taʼsiriga, yozda 20-30 daraja issiq va moʻl-koʻl yomgʻirga, qishki qor boʻroniga, 30-40 daraja sovuq havoga, qum va tuproq



bo‘ronlariga bardosh berganligi ham bu siyoh yoki bo‘yoqning texnik xususiyatlarining har xil ekanligini ko‘rsatadi” (Sertkaya 2000, 314). Yozuvlar qoyaning tekis keng joylariga yozilgan. A.Badam bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, tosh massasining turli qismlarida ikki yuzga yaqin yozuv mavjud bo‘lib, ular cho‘tka va siyoh bilan yozilgan (Azzaya 2012, 61). 1883-yilda D.Klemens qoyadagi yozuvlarni e‘lon qiladi va uning nusxalari asosida D.Klemens, V.Radlov, H.O‘rxun (Orhun 1939, 105-117), S.Malov (Malov 1959, 46-54) 10 ta qadimgi turkiy yozuvni o‘rgangan. Xususan, bitiglar birinchi marta 1895-yilda V.Radlov tomonidan nashr etilgan bo‘lib, u o‘z ishini 1893-yilda D.Klemens qo‘lga kiritgan 10 ta yozuv nusxalari asosida yaratgan (Radloff 1895, 260-268). S.Harjaubay qo‘lga kiritgan nusxalari u va U.Sertkaya tomonidan nashr etilgan (Sertkaya va b. 2000, 313-346). Shu o‘rinda A.Badamning mo‘g‘ul va turk tillaridagi nashrlarini ham eslatib o‘tish joiz (Azzaya 2007, 68-75). 1958-yilda G.Ramstedt, I.Grano, P.Aalto (Ramstedt va b. 1958, 62-76) 26 ta yozuvni, shu jumladan 10 tasi avval ma‘lum bo‘lgan yozuvlarni o‘rganib chiqdilar. Yodnoma bo‘yicha mo‘g‘ul olimlari X.Perleye (Perlee 1960, 1-26), B.Ritchenning (Ritchen 1968, 34-36) ham tadqiqotlari fanga ma‘lum, xususan, H.Perleye o‘zining “Tayhar Chuluu” nomli maxsus risolasida runik yozuvning oldingi yozuvlardan farq qiluvchi qo‘lyozmasini yozib oldi va nashr etdi. S.Harjaubay 32 ta yozuvni aniqlagan, shu jumladan, 26 tasi avval ma‘lum. Keyingi davrda bitig matni bo‘yicha E.Aydin (Aydin 2013, 147-152; 2017, 1-14), M.Bakir (Bakir 2021, 1271-1281)larning ilmiy ishlari e‘lon qilingan.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu tadqiqot Xoyt Tamir – Tayhar Chuluu bitigidagi *qara bas* va umuman ushbu davr turk-run bitiglaridagi oddiy xalq, avom, shuningdek, boshqa bir qancha tasvirlarga nisbatan ishlatilgan *qara* bilan bog‘liq leksemlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu bir nechta ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali *qara* leksemasining O‘rxun-Yenisey bitiglari va keyingi davr turkiy manbalardagi qo‘llanishi solishtirildi. Shuningdek, leksik-semantik tahlil usuli yordamida *qara*, *qara bas*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* kabi birliklarning ma‘no qatlamlari, semantik kengayish va metaforizatsiya jarayonlari aniqlandi. Matnlardagi atamalarning ichidagi ijtimoiy va pragmatik vazifalarni ochish maqsadida etnosotsial va sotsiolingvistik talqin metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida kontekstual tahlil usuli qo‘llanib, *qara*ning muayyan bitiglarda qanday ma‘no yuklab kelgani, qanday atoviy determinator sifatida ishlayotgani matn doirasida o‘rganildi. Shu bilan bir qatorda, tarixiy-etnolingvistik yondashuv asosida *qara* atamasi qadimgi turk jamiyatining tabaqalanish tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Matn shakllanishidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash uchun struktural tahlil, zarur nuqtalarda esa deskriptiv (tasviriy) metod qo‘llandi. Ushbu metodlar majmui *qara* leksemasining qadimgi turk tilidagi determinativ, atributiv va ijtimoiy funksiyalarini har tomonlama yoritish imkonini beradi.



**Natijalar.** Tadqiqot davomida qadimgi turkiy bitiglarda uchraydigan *qara* leksemasining semantik imkoniyatlari, diskursiv vazifalari va sotsial-nominativ xususiyatlari yanada kengroq yoritildi. Tahlillar ko'rsatdiki, *qara* qadimgi turk tili tizimida faqat rang nomi sifatida emas, balki jamiyatning ichki tuzilishi, siyosiy stratifikatsiyasi va etnik-sotsio ahamiyatga ega ko'p qatlamli determinant sifatida shakllangan. Uning rang ma'nosidan ijtimoiy ma'noga o'tishi bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lib, denotativ ma'no (qora, quyuq) bilan bir qatorda xalqning quyi qatlamini, oddiy avomni bildiruvchi sotsionim funksiyasida keng qo'llangani tasdiqlandi. Manbalarda bu boradagi ma'lumotlar chegaralangan bo'lsa-da, runik bitiglarda uchraydigan *qara*, *qara budun*, *qara qamuy budun* hamda *qara bas* kabi birikmalar qadimgi turkiy jamiyatda xalqning quyi qatlamini ifodalagan alohida sotsial birlik mavjud bo'lganini ko'rsatadi (Golden 2002, 121). O.Pritsak fikriga ko'ra, *qara* so'zi sotsionimlar bilan qo'llanganda jamiyatning eng quyi, biroq *ozod* tabaqasiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, bu birliklar qullardan farq qiluvchi, lekin sulola elitasi bilan teng bo'lmagan avomni bildirgan (Pritsak 1980, 119).

Aytish kerakki, qadimgi turk jamiyatidagi ijtimoiy qatlamlar masalasini yoritish Xoqonliklarning o'ziga xos siyosiy va ijtimoiy tuzumi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki bitigtoshlarning murojaat uslubida ham aynan shu ikki qutb – hukmron aslzodalar va oddiy xalq – doimo yonma-yon tilga olinadi. Xoqonlarning nutqlarida xalqqa murojaat shaklining an'anaviy ko'rinishi *türk bāglār budun* ("turk beklari va xalq") birikmasi orqali mustahkamlangan bo'lib, bu ularning siyosiy diskursida jamiyatning yuqori va past tabaqalari qat'iy farqlanganini ko'rsatadi (Abdurahmonov va b. 1982, 126, 132–133). Uyg'ur xoqonligiga oid bitiglarda bu tabaqalanish yanada ravshan ko'zga tashlanadi: unda *atliγ* ("nomdor, obro'li, yuqori maqomli shaxs") va unga qarama-qarshi tarzda *igil qara budun* yoki *qara bas* kabi birikmalar uchrab, "oddiy xalq, avom" tushunchasini qat'iy ajratib beradi (Klyashtorniy 2008, 16). Mana shu qarama-qarshilik ijtimoiy tuzumning qatlamliliigi va siyosiy markazlashuvning kuchli bo'lganidan darak beradi. Qadimgi turklar davlat tizimida yetakchi elita aynan *yaqlaqar* urug'iga mansub bo'lib, hukmron sinfning asosiy yadrosini tashkil etgan (Boboyorov 2018, 130). Shu elita vakillari tomonidan xalqqa qilingan murojaatlar, ularning o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun qanday siyosiy nutq strategiyasidan foydalanganini ham ko'rsatadi: "*qara budunim öltiγ yätdäñ; yaña içik ölmäçi yätmäçi sän tädim*" – (Ey) qavmim! O'lgansan, halok bo'lding. (Yana menga) bo'ysunsang, o'lmaysan, halok bo'lmaysan, dedim" (MCh, 17). Ushbu satrlar nafaqat siyosiy nutqning shaklini, balki quyi qatlamning jamiyatdagi rolini ham ko'rsatib beradi: ular davlatning sodiq tayanchi bo'lgan, biroq hukmron tabaqadan doimo pastda turgan ommaviy qatlamdir.

Shuningdek, *qaraning* etnonim tarkibidagi atributiv vazifasi — turk qabilalari ichida bo'linma, ikkilamchi guruh yoki katta ittifoqdan ajralib chiqqan bo'limlarni anglatuvchi belgi sifatida shakllanganligi aniqlandi. Bu holat *qara qarluq*, *qara türgiš*



kabi nomlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Antroponimik tizimda esa *qaraning* "kuchli", "katta", "ulug'" semalari bilan boyiganligi va ayrim shaxs ismlariga epitet tarzida qo'shilib, maqom va fazilatni kuchaytiruvchi atribut vazifasini bajargani kuzatildi. Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara baš* birikmasining tahlili esa muhim natijalardan bo'lib, uning runik korpusdagi yagona o'rni sababli alohida ilmiy ahamiyatga ega o'laroq, uning toponim yoki gidronim emas, balki jamiyatning oddiy aholisi, avom qatlamini bildiruvchi – sotsionim sifatida talqin qilinishi eng asosli talqin bo'ladi. DLTdagi *qara baš* shakli bilan fonetik-semantik yaqinlik, shuningdek bitigning kontekstida xalqning ko'chirib topshirilishi va boshqarilishiga doir ma'lumotlar mazkur birlikning aynan sotsial ahamiyatli termin ekanini yanada kuchaytiradi. Shu orqali *qara baš* qadimgi turk jamiyatida avomning mavsumiy ko'chirish, boshqarish va tartibga solish bilan bog'liq jarayonlarda qatnashuvchi ommaviy guruh nomi sifatida qo'llangan bo'lishi mumkinligi aniqlanadi. O'rganilgan materiallar *qaraning* qadimgi turkiy rang-simvolik tizimdagi o'rni – shimol yo'nalishi, quyuqlik, dahshat, kattalik, kuch ramzi tarzida shakllanganligini ham ko'rsatdi. Shu bois uning ijtimoiy semantikaga o'tishi tasodifiy emas, balki turk dunyoqarashidagi rang-makon, rang-tabaqa, rang-marhumlik singari konseptlar fonida rivojlangan. Bularning barchasi *qara* leksemasining qadimgi turkiy tildagi determinativ funksiyasi mustahkam, barqaror va ko'p qatlamli tizim ekanini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, *qaraning* semantik evolyutsiyasi va uning turli darajalardagi qo'llanilishi qadimgi turklar jamiyatining tuzilishi, ierarxiyasi, rang-simvolik tafakkuri va nomlash odatlariga oid yangi ma'lumotlar beradi, ayniqsa *qara bašning* semantik-funksional chegarasining belgilanishi turkiy tilning qadimgi davriga oid sotsionimlar tizimini yanada boyitadi.

**Muhokama.** Ishning muhokama qismida *qara* leksemasi sememasining (kontekstual) mazmuniy-tematik mundarijasini quyidagicha ko'rib chiqamiz.

#### **Qadimgi turkchada *qara* to'g'ridan to'g'ri rang ma'nosida**

*Qara* turkiy til lug'at fondining eng qadimgi va eng ko'p istifoda etilgan asosiy so'zlaridan sanaladi. Manbalarga ko'ra, sanskrit tilidagi *kāla* (=qora, to'q ko'k) so'zidan kelib chiqqan deb qaraladigan ushbu leksema turk tilida *l/r* transformatsiyasi orqali *qara*'ga aylangan. *qara* so'zi turkiy tillarda O'rxun-Yenisey bitiglaridan beri ishlatilgan bo'lsa-da, u ba'zi Janubiy Osiyoning aryan tillaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin (Aksozluq 2020, 1). Ushbu leksema qadimgi turkiy tilda avvalo "qora rang", "quyuq, zulmat" ma'nolarini anglatgani holda uning qo'llanish doirasi rang ifodasidan keng bo'lib, turli metaforik, ramziy va ijtimoiy ma'nolarga ega bo'lgan. Darhaqiqat, turkiy xalqlarning etnonimik nomenklaturasida asosan beshta rang eng ko'p qayd etilgan: *qara* – "qora", *aq* – "oq", *qizil* – "qizil", *yašil* – "yashil" (bu *kok* "ko'k"ka mos kelishi mumkin) va *sariy* – "sariq" (ot ranglarini bildiruvchi *ala* – "ol-to'q", *boz* – "kulrang" va *qir* – "jigarrang" kamroq qo'llaniladi) (Gabain 1962, 112–113).

*Qara* so'zi turkiy tilning barcha davrlarida turli ma'nolarda ko'zga tashlanishi o'laroq, u avvalo O'rxun va Yenisey bitiglarida keng ma'noga ega rang nomi sifatida



gavdalanadi. Xususan, quyidagi misolda “eng to‘q rang” ma’nosida epitet vazifasida ishlatiladi: “*qizil qanım: tōkūiti: qara tārım: yūgūrti: işig küçüg bārtım ök: – qizil qonimni tugatib, qora terimni yugurtib, mehnatni, kuchni berdim*” (To‘n, 52); “*ädgü: özlik: atin: qara: kisin: kök: täyänin: sansiz: kälürüp: qop: qottı: – yaxshi boqimdagi shaxsiy otlarini, qora kishilarni va osmon teyin(lar) (olmaxon)ni sonsiz keltirib, barini qo‘yib ketdi*” (BX TX, 12); “*sariy altunin: ürünj: küm(ü)şin: qiryayliy: qutayin: qinl(i)y: äşgıtisin: özlik atin: adyürin: qara kışin – (Men) sariq oltinini, oq kumushini, qirg‘og‘li ipagini, ekindan qilingan ichkiligini, xos (maxsus) otini, ayg‘irini, qora kish (suvsar)ini, ko‘k olmaxon (mo‘ynasi)ini turkimga, xalqimga egallab berdim*” (BX Shim, 11-12). Uning bu ma’nosi turkiy tilining keying davrlarida ham so‘zning eng faol semasi sifatida saqlanib qoldi. Qoraxoniylar davri matnlaridan DLTda “qora rang” ma’nosida izohlangan (DLT III, 240-241) ushbu leksemaning orttirma darajali shakli ilk marta QB’da ko‘zga tashlanadi: “*Qizil ayzi qan tæg qaşi qap qara – Qizil labi qondek, qoshi qop-qora*” (QBN, 189).

Aytib o‘tish kerakki, qadimgi turk-run matnlarida salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lmagani holda asosan rang va sotsionim vazifasida gavdalangan *qara* leksemasi eski turkiy til davri matnlarida oliynasab (hukmdor) toifasini nomlash bilan birga (Qoraxon – Qoraxoniylar), “yomon; past daraja”da ma’nolarida ishlatiladi: “*Köni ägri farqi ürünli qara – To‘g‘ri va egrining farqi – oq va qoraning farqi kabidir* (QBK, 392<sub>8</sub>)”; “*Qamuy tægşürüldi törü öndilär, qaralı ürünli bir-ök boldılar – Hamma tartiblar o‘zgardi, qora bilan oq bir bo‘ldi*” (QBK, 384<sub>10</sub>). Shuningdek, bu davrdan *qara* bilan yasalgan fe‘l shakllari ko‘zga tashlanadi: “*Qarayurma diinjakä soqluq qilip – Bu dunyoga suqlik qilib, o‘zingni qoraytirma*” (QBK, 365<sub>12</sub>); “*Baru attı soqluq qoradi sävinç – Ochko‘zlik ortib bordi–sevinch kamaydi*” (QBK, 384<sub>3</sub>); “*Bayişlasu täñri anij žanini, qoratmasu andin äti qanini – Tangri uning ko‘nglini avf qilsin, uni (tanasiga va qoniga) qoraytmasin – ziyon keltirmasin*” (QBK, 374<sub>11</sub>). Bunda *qarayurma* shakli o‘zini “bulg‘amaslik, axloqan pastlashmaslik” ma’nosini bersa, *qoradi* fe‘li ichki illatning kuchayishi, ochko‘zlikning ortishi va natijada holatning yomonlashuvini bildiradi. *Qoratmasu* esa “ziyon yetkazmasin, balo tushirmasin” kabi ma’noda qo‘llanib, jismoniy yoki ruhiy zarar tushushining oldini tilaydigan pragmatik ohangga ega. Demak, bu kontekstlarda *qara*- negizli fe‘llar salbiy jarayon, buzilish, yomonlashish yoki zarar yetishi mazmunlarini ifodalovchi metaforik-semantik funksiyada ishlatilgan. Aytish kerakki, *qara* leksemasi hozirgi o‘zbek tilida qariyb yigirmaga yaqin konnotativ semalar kasb etgan (O‘TIL IV, 335-337).

#### **Qara’ning topoleksemalashuvi: uning joy nomlari tarkibidagi funksiyasi**

*Qara* leksemasi bitigtoshlarda toponimik vazifani ham bajargan. Turkiy xoqonliklar va keyinchalik mo‘g‘ullar sulolasining asosiy boshkentlaridan biri bo‘lgan Qaraqum va Qarabalg‘asun shaharlari shular jumlasidan. Bu bilan bog‘liq qaydlar quyidagi Uyg‘ur xoqonligi bitiglarida ko‘zga tashlanadi: “*örün bägig : qara q(b)ulluqiy : ani olurmus : Qırqız tapa : är idmis – Qara Buluq (va) Ani (daryosi)da bo‘ldi(lar). Qirg‘izlarga*



jangchilar yubordi” (MCh, 24); “*qara: yotluqun: kächip: kälirti: utru yorudum* – Qora Yotluqdan o‘tib olib kelishdi. Men ularni ta‘qib qildim” (MCh, 27); “*Qara: Bulaq öndän: Suqaq yoli* – Qara Bulaqning sharqidagi So‘qoq yo‘li” (MCh, 35). *qara* joy nomlarida qo‘llanganda asosan ikki ma‘no faol bo‘lgan, birinchisi, rangga oid bo‘lib, u hududning tabiiy ko‘rinishini — tuprog‘ining quyuqligi, tosh yoki yer qatlamining qoramtirliigi, suvining to‘q rangi yoki o‘rmonning zichligi kabi belgilarga asoslangan<sup>1</sup>. Shu bois *Qaraqum, Qaraköl* kabi toponimlarda “qoramtir, quyuq, to‘q rangli” ma‘nosi yetakchi hisoblanadi: “*ärtim qara: qum: aşmiş: kögärdä: kömür tayda: yar ögüzdä: üç tuy/luy/*: // *türük budun* – edi. Qoraqumdan narigi Ko‘gurda, Ko‘mirtog‘da, Yar daryosi yaqinida Uch tug‘li turk xalqi” (MCh, 8); “*çuyay quzün: qara qumuy: olurur ärtimiz* – Chug‘ay quzni va Qoraqumni manzil qilib olgan edik (To‘n, 7)”; “*qara költä: süñüsdümüz* – biz (ular bilan [az xalqi]) Qora Ko‘lda jang qildik (KT Shim, 2)”. Ikkinchi faol ma‘no esa qadimgi turkiy kosmologiyada ranglarning yo‘nalish bilan bog‘lanishi natijasida yuzaga kelib, turklarning ranglar tizimida *oq* – sharq, *qizil* – g‘arb, *ko‘k* – janub va *qora* – shimol yo‘nalishini bildirgan. Shu sababli ayrim joy nomlarida “shimoliy hudud, shimol tomonda joylashgan yer” mazmuni aks etadi. Masalan, *Qaraqum, Qaraköl* kabi nomlarning tarkibidagi *qara* komponenti ba‘zan geografik yo‘nalishni bildirgan semantik qatlamni ham saqlagan bo‘lishi mumkin.

#### **Qara‘ning antroponimlarga ishora qilishi: uning turkiy titilaturadagi o‘rni**

*qara* so‘zi bitiglarda atoqli otlar yoki ularning oldidan kelib epitet (sifatlash) vazifasini hosil qilishda ham qo‘llanilgan. Shaxs ismlarining qo‘shma shaklida bu so‘z odatda “katta”, “qudratli” (Kononov 1965, 78), “kuchli” va “baland” (SIGTYA 2001, 680-681) ma‘nolarini ifodalagan. *qara* so‘zi bitiglarda to‘g‘ridan to‘g‘ri odamlarga nisbatan ham ishlatiladi (KT Shar 8, BX Shim 11, Ongin 9, Ye 45/7). Xitoy yilnomalariga ko‘ra, Tumin (Bumin) xoqon vafotidan keyin bosh hukmdor – *qayan* sifatida uning birodari Istami emas, o‘g‘li *Qara* (xit. Kolo; 552-553), keyinchalik ikkinchi o‘g‘li *Muqan* (553-572) tayinlanadi (Shyuven 1995, 34). 620-yillardan to 750-yillarga qadar To‘xoristonni umumiy Yabg‘ular sulolasi nomi ostida qariyb bir yarm asir boshqargan sulola vakillari ichida Sulayman(?) *Qara* (xit. Shiliman Gyalo (750)) laqabiga ega edi (Bichurin 1950, 58; Chavannes 1903, 155-158; Harmatta 1996, 373; Ekrem 2003, 138-139).

Shuningdek, xoqonliklarda sulola a‘zolarini boshqa quyi tabaqa (qul)lardan farqlash uchun *tägin* so‘zining boshiga uning fe‘l-atvori va mavqeyiga muvofiq epitetlar qo‘shilib aytilardi: *Arslan Tägin, Toyrul Tägin, Yinäl Tägin, Çayri Tägin, Küç Tägin, Alp Tägin, Quthuy Tägin, Kümüš Tägin, Böri Tägin, Tuy Tägin, Toña Tägin, Yıryan Tägin* kabi (Ömer 2011, 312). Bitiglardagi *Qara Tägin* kabi ismlar ham shunday vaj‘ bilan paydo bo‘lgan edi. Ma‘lumki, xoqonliklar idora tizimida g‘ayriturkiy etnos vakillari – xitoyliklar ham bo‘lgan. Ba‘zan *qara* unvonidan ular ham bebahra

<sup>1</sup> Ushbu vazifa, shuningdek, “biror narsaning uzoqdan yoki qorong‘idan ham ko‘zga tashlanishi” tarzida izohlanadi (Bu uchun qarang: O‘TIL IV, 336).



qolmagan, xususan, manbalarda bu bilan bog‘liq quyidagi ma‘lumotlar uchraydi: “Ilgari Suy sulolasi davrida Uyuan (Wu-Yüan) umum voliysi bo‘lgan Chjan Chansun ichki tartibsizliklar tufayli o‘z boshqaruvidagi Uyuan shahri xalqi bilan birgalikda *Tukyuye* (turk)larga borib qo‘shilgan edi. Unga (turklar tomonidan) *Kolo Tele* (\*Qora Tegin) unvoni berildi” (Togan va b. 2006, 111, 325). Demak, xoqonlikning boshqaruv tizimida qatnashgan g‘ayriturkiy etnoslar vakillari ham unvonga munosib ko‘rilganda bevosita turkiylarga xos an‘anaga rioya qilingan. Keyingi davrlarda matnlarida ushbu leksema *Qara Mähmäd Bäg*, *Qara Yusuf Bäg* (Qora-Qo‘yunlular), *Qara Yuluq Usman Bäg* (Oq-Qo‘yunlular), *Qara Osman Bäg* (Usmonlilardan), *Qara Yusuf*, *Qaracha Ahmäd* ning ismlari va epitetlarida uchraydi. Bu yerda *qara* to‘g‘ridan to‘g‘ri “jasur va qahramon shaxs” degan ma‘noni anglatadi (Kafalı 1996, 49-54). QB‘da pandnoma bag‘ishlangan Bug‘raxon nomi *Qara* epiteti bilan tilga olinadi: “*Buyra Qara Xaqan* – Bug‘ro Qora Xoqon” (QBK, 216). Shuningdek, manbalarda *qara* leksemasi *Qara baqši*, *Qara Buqa*, *Qara Oquy*, *Qara Tägin*, *Qara Tämiür*, *Qara Xan*, *Qara Sängun*, *Qara Toyin*, *Örgünç Qaramiš* (*Qaraqat*) (*Qaraq*), *Altun Qara*, *Buyra Qara Xan*, *Buyan Qara*, *Tuqäl Qara* kabi antroponimlar tarkibida uchraydi. G.Doerferning *qara* so‘zi shaxsiy ismlarda (masalan, *qara qayan*, *qara tägin*) ishlatilganda “kuchli” ma‘noga ega bo‘ladi, degan qarashga e‘tirozi uchun qarang (Doerfer 1967, 440).

#### ***Qara* ning etnoleksemalashuvi: uning qabila va urug‘ nomlaridagi atributiv funksiyasi**

Qadimdan turkiy va mo‘g‘ul xalqlari orasida rang ma‘nosiga ega etnonimlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda bunday nomlar “rang etnonimlari” sifatida talqin qilinadi. Etnonimlar keng ma‘noda ijtimoiy guruhlarining o‘zini o‘zi atash usuli bo‘lib, ular ko‘chmanchi jamiyatning moslashuvchan va murakkab tuzilmasi ichida turli taksonomik darajalarni ifodalashga xizmat qiladi (Timoxin va b. 2024, 9). Turkiy xalqlar etnonimiyasida rang belgilaridan foydalanish har bir davr va mintaqaga xos bo‘lgan o‘ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Bu holat, avvalo, o‘sha davrning tarixiy-madaniy sharoitlari bilan belgilanadi. Aytish kerakki, rangga asoslangan etnonimlar tuzilish nuqtayi nazaridan ikki turga ajratiladi<sup>1</sup>: bir komponentli etnonimlar faqat rang nomidan iborat bo‘lib, sinfnig to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zini o‘zi belgilashini bildiradi. Masalan, “*Qara köñlin avlar bägi jarliyi* – Begning farmoni qora avom ko‘nglini ovlaydi” (QBN, 1347): “*Qara qarni tođsa tili bašširar* – Qora (avom) qorni to‘ysa, tili boshsiraydi” (QBN, 3114). Bu shakl ko‘proq eski turkiy til manbalarida ko‘zga tashlanadi. Ikki (yoki uch) komponentli etnonimlar esa rang belgisining boshqa bir so‘z bilan birlashishi natijasida yuzaga kelib, muayyan jamoadan dalolat beruvchi o‘ziga xos nomlash konstruktsiyasini hosil qiladi. Masalan, “*Turk qara qamuy budun anča tämiš: ällig budun ärtim, älim amtı qanı* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi:

<sup>1</sup> “Etnonimiyaning rangga asoslangan bir va ikki komponentli belgilovchi modeli turkiy va mo‘g‘ul xalqlari orasida uzoq tarixiy davr mobaynida kuzatilgan bo‘lib, ularning tarixi davomida keng geografik hududlarda qayd etilgan” (Lezina 1994, 466).



“Davlatli xalq edim, davlatim endi qani” (KT, 8-9). Turkiy xalqlar etnonimlarini tasniflashga bag‘ishlangan yirik tadqiqot muallifi G.Nemet ikki komponentli nomlarni alohida guruh sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, rang belgisi nom tarkibida obyektning o‘ziga xos xususiyatini bildiruvchi asos bo‘lib kelishi mumkin, masalan, *qara qalpaq*, *qara b6rkl6* kabi etnonimlar shunday tuzilgan. Shuningdek, u hayvonlarning rangi bilan bog‘liq nomlarni ham ajratadi: *ala yontlu*, *qara qoyli*, *aq qoyli* kabi (Nemeth 1991, 100-103).

Turkiy xalqlar orasida rang semantikasi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan O.Pritsak bu masalaga kengroq yondashadi. U bir xil qabila yoki guruh nomlarining turli variantlari mavjud bo‘lgan vaziyatlarda *qora* va *oq* belgilarining farqlovchi vazifa bajarishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turkiy bitiglardagi *qara* – “haqiqiy, aralashmalarsiz, asli sof” ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin (Pritsak 1951, 378). Olim rang belgilarining nafaqat etnonimlarda, balki toponim va titulaturalarda ham qo‘llanishini ko‘rsatib, ularni geografik yo‘nalish, ma’muriy bo‘linma va ierarxiya bilan bog‘lash imkoniyatini ko‘rsatadigan katta miqdordagi material to‘plagan (Pritsak 1950, 239–363). A.Kononov rangga asoslangan etnonimlar semantikasini izohlar ekan, bunday nomlar ko‘pincha rang belgisi orqali qabilaning hukmron yoki markaziy guruhga nisbatan haqiqiy geografik joylashuvini bildiruvchi ko‘rsatkich sifatida shakllanganini ta’kidlaydi (Kononov 1978, 167–169). Ikki qismli qabila nomlarida atributiv unsur sifatida qo‘llanadigan *qara* so‘zi A.Kononov ta’kidlaganidek, ko‘pincha asosiy jamoadan ajralib chiqqan ikkilamchi guruhni bildiruvchi belgi sifatida talqin qilinishi mumkin degan qarash hozircha haqiqatga yaqin ilmiy xulosa sifatida qabul qilinadi (Kononov 1965, 78). Bunga V.Trepavlov bu ajralish ham migratsiya, ham yangi yerlarni bosib olish orqali sodir bo‘lganini qo‘shimcha qiladi. Ushbu qarashga quyidagi jumla asos bo‘lishi mumkin: “*basmil: qara qarluq: budun: t6rilip k6ltim* – basmil qora qarluq xalqi yig‘ilib keldi (BX Shar, 29). Bilga Xoqon bitigidagi umumiy tafsilotlarga ko‘ra *qara qarluq budun*’lar xoqonlik atrofidagi (nisbatan uyushmagan) ayro holatdagi etnos edi.

Darhaqiqat, *qara* leksemasining semantik mohiyatiga doir muhim mulohazalardan biri N. Aristov tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra bu epitet rang ma’nosidan tashqarida O‘rta Osiyo turkiy xalqlari orasida “quyroq, yomonroq” mazmunida qo‘llanganini qayd etiladi. Tadqiqotchi fikricha, mazkur birlik etnonim sifatida ishlatilganda, u ko‘pincha xalq yoki qabilaning yoshroq, bo‘ysunuvchi, ya’ni asosiy qismdan ajralib chiqqan ikkilamchi bo‘linmasini bildirgan (Aristov 1896, 302). Aristov buni qora-xitoylar va qora-qalmiqlar (ushbu muallifning so‘zlariga ko‘ra, turklar ularni shunday atashgan) misolida asoslab, ularning ikkalasi ham turli vaqtlarda asl nomini saqlab qolgan holda ko‘proq xalqning ajralib chiqqan tarmoqlarini anglatganini ta’kidlaydi. Bu jarayonda *qara* sotsionim sifatidagi dastlabki vazifasidan chiqib, etnonimik birlik xususiyatini kasb etgan va qabila, xalq tuzilmasidagi iyerarxik yoki genealogik bo‘linmani ifodalovchi belgi sifatida shakllangan bo‘ladi.



**Qara sotsionim sifatida: qara budun, qara qamuy budun,  
qara igil budun, qara baš**

O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridan ma'lum bo'lishicha, "qadimgi turkiylarda siyosiy uyushma sifatida "davlat" ma'nosida ishlatilgan *äl* so'zi ostida davlatni tashkil etuvchi asosiy unsurlar, jumladan, *törü(g)* – hokimiyat/qonun, *uluš* – mamlakat, *budun* (*qara budun*) – xalq tushunilgan" (Kaşıkçı 2002, 888). Hatto, asosiy ma'nosi "davlat" bo'lgan *äl* istilohi davlatni tashkil qiluvchi uch unsurning har biri bilan teng ma'no ifodalovchi sinonim so'z sifatida ham qo'llangan (ДТС, 168-169). Ya'ni O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida ushbu *äl* istilohi "mamlakat, saltanat", shuningdek "xalq" ma'nosida ham qo'llangan, lekin "xalq" ma'nosida asosan *budun*, *qara budun*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* istilohlari tilga olingan. "Xoqonliklarda *Türk qara qamuy budun* – "Turk (xoqonligi) oddiy fuqarosi" *bod* (qabila) va *oyuš* (urug')lardan tashkil topgan bo'lib, siyosiy jihatdan *älga* uyushgan" (Markov 1976, 47-48). Shu o'rinda *älig* so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, *äl* ilk marta juan-juanlar tomonidan ishlatilgan va manbalarda ikki o'rinda qayd etiladi (Yıldırım 2015, 84). Boshqa bir manbaga ko'ra, ko'k turklarga bo'ysungan juan-juanlar ustidan qozonilgan g'alaba natijasida birinchi Ko'k Turk xoqonligi asoschisi Bumin xoqon *älig qayan* unvonini olgan (Golden 2006, 133). Bitigtoshlarda *äl* – "xalq ~ davlat" istilohi bilan bog'liq quyidagi ma'lumot uchraydi: "*Türk qara qamuy budun anča tämiš*: "*älig budun ärtim, älim amtü qanı* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani" (KT, 8-9). Ushbu satrlardan ma'lum yana bir bor bo'ladiki, *äl* nafaqat hukmron tabaqani anglatishga (*älig* – "eli bor, davlatli"), balki oddiy xalqni ham anglatgan siyosiy institut sifatida bilingan. Demak, *budun* "qabila-urug' uyushmasi", *äl* esa ko'proq "harbiy-ma'muriy tashkilot" sifatida gavdalanib, mustahkam ijtimoiy munosabatlar bilan o'zaro bir-birini to'ldirgan.

Bitiglarda *qara*'ning eng ko'p qo'llanilgan ma'nosi "oddiy, sodda" bo'lgani holda, bu sifat asosan *budun* komponenti bilan birikib, xalqning quyi qatlamini (*qara budun* – "qora xalq, avom" shaklida) anglatgan. Bu so'z ushbu ma'noda ko'p marta uchraydi: "*yabyu: atadi anta : kisrä: (a)qanım: qayan: učdu: qara budun: qilinč // küsgü yilqa ... dim* – yabg'u (deb) e'lon qilindi. Keyin mening otam xoqon vafot etdi. Avom yumushlari Sichqon yilida" (MCh, 12); "*qara: budunim: öltiñ: jätdäñ: yaña içik ölmäçi: jätmäçi: sän tädim* – (Ey) qavmim! "O'lgansan, halok bo'lding. (Yana menga) bo'ysunsang, o'lmaysan, halok bo'lmaysan", dedim (MCh, 17); *qara budun: qayanım: kälti tip: ögirip säbinti*: – Oddiy xalq "Xoqonim keldi" deb, deyishib sevindi (BX Shar, 41); "*Türk qara qamuy budun<sup>1</sup> anča tämiš*: "*älig budun ärtim, älim amtü qanı* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani" (KT, 8-9). *qara budun* birikmasi "Oltun yorug'" asarida ham sifatlovchi-sifatlanmish

<sup>1</sup> Turk *qara qamuy bodun* iborasining ekvivalenti Chingizxon imperiyasi davrida *qamuy mongol* – "hamma mo'g'ul (xalqi)" shakliga to'g'ri keladi, u mazmunan yangi tashkil topgan davlat tarkibidagi barcha mo'g'ul qabilalarini anglatgan (Kradin va b. 2006, 132–133).



munosabatidagi bitishuvli soʻz birikmasi sifatida ijtimoiy qatlamni ifodalaydi: “*İncip yalanguqugh (ädgükärü ötlägü) ol qamagh qara budunin* – Shu tariqa insonga yaxshi(lik qilish uchun maslahat beradi), oʻsha jamiki qora xalqiga” (VIII. 36a/b). Yoki: “*Ädgügärü incip ödläyür qamagh qara budunin* – Shu tariqa (u) jamiki qora xalqini yaxshilikka daʼvat etadi (VIII.37a)” (Qilichov 2020, 41).

Aytish kerakki, *qara qamuy budun* xoqonliklar tuzumida faqat avomni anglatmagan, mazkur ijtimoiy qatlam vakillarining davlat boshqaruvidagi roli bilvosita koʻzga tashlanadi. Qadimgi turklarda monarxning siyosiy hokimiyatini turli omillar cheklab turgan, ular orasida ushbu jamiyatda hokimiyatning ikki subyekti: birinchisi, xalq – *qara budun* hokimiyatining davlat boshqaruvidagi roli nisbatan oz darajada boʻlsa-da mavjud boʻlgan (Boboyorov 2018, 160). Xususan, mazkur *qara qamuy budun* ichida eng kata taʼsirga ega uyushma *On Öq* qabilalari itifoqi edi. Qolaversa, Tuput tilidagi manbalarga koʻra, Gʻarbiy Turk xoqonligi idora tizimida bevosita *qara budun* vakillarini koʻrish mumkin edi: “shimol oʻlkalari”ning poytaxti Shubaliq (Suyab) shahri, boshqaruvchilari *xirkin* (ärkin) va *darkan* (tarqan), ularning maslahatchilari – *drugyus* (türgäs) va *amacha*, xizmatchilari *nagdrug* (lugʻ. “*qara türk*”) va *amacha* boʻlgan” (Klyashturny 2006, 257). Aytib oʻtish kerakki, *qara* Qoraxoniylar davri matnlarida bevosita “qul” maʼnosida ham koʻzga tashlanadi. “*Qara qul qarasi bolur bæg ürün, qarali ürünli adirti körün* – Qora qul qoraligi boʻladi, beg esa oqdir, qora bilan oqning tafovutiga nazar soling” (QBK, 1084).

Oʻrxun yodnomalaridagi *qara* ning *turgis* etnonimi bilan kelgan oʻrinlari mavjud: “*anta kirsä: qara türgis: budun: yayi bolmiş* – undan keyin qora Turgash xalqi dushman boʻldi (KT Shar, 39); *qara türgis: budun: qop içikdi*: – qora Turgash xalqi butunlay taslim boʻldi” (KT Shar, 38); “*qara türgis budunuy anta olürmiş almiş* – qora Turgash xalqini oʻshanda oʻldiribdi, asirga olibdi” (KT Shar, 40). N.Aristov *qara türgis* nomidagi birinchi komponentni “xalq yoki qabilaning yoshroq, boʻysunuvchi qismini anglatuvchi” atribut sifatida talqin qilgan. Biroq, V.Tomsenga koʻra *qara türgis* Xitoy manbalarida *Hei Xing* – “qora familiya” nomi bilan tilga olingan va turgash qabilalarining bir guruhini bildiradi. Bunda *qara* ning etno-sotsiyosiy funksiyasi Xitoy bilan bogʻlanadi (Tomsen 1896, 110, 158-159). Chunonchi, Sin Shixuandi (mil. av. 221-206) davrida mamlakatni markazlashtirish avj olganda Vey daryosi shimoliy sohilidagi yangi poytaxt – Syanyan shahriga (bir-birini qoʻllab-quvvatlamasligi uchun) aslzoda oilalarni koʻchirib keladi va natijada ular oʻzlarining avvalgi mahalliy qavmlaridan uzoqlashib, poytaxtda hech qanday tayanchga ega boʻla olmaganlar. Shunda vassallarining mahalliy etnik ism bilan atalishi man etilib, oddiy aholi *Hēitōu* – “qoraboshlar” deb atala boshlanadi (Abdullayev 2017, 271).

Shine Usu (Moʻyun Choʻr) sharqiy matnining ikkinchi qatoridagi *qara igil budun* iborasidagi ikkinchi komponent boshqa runik matnlarda tasdiqlanmagan deb qaralardi: “... *qara : i(ä)gil: buduniy: yoq qilmadim: äbin barqin yilqishin: yulmadim: qiyyin: aydim: turγuru qutum: kántü budunim: tädim* – Men oddiy itoatkor odamlarni



o'ldirmadim. Men ularning uyi, mol-mulki, otlarini tortib olmadim. Hukmimni aytdim. O'z holicha qoldirdim. (Ularni) o'z xalqim deb tan oldim va qo'shilishga ruxsat berdim" (MCh, 14). Lekin ushbu jumaladagi *igil* so'zi aynan *qara* bilan birlikda Talasdagi Chatchikey vodiysida topilgan turk runik bitigida ham ko'zga tashlanadi<sup>1</sup>: "*on (o)° q A ig(i)l A q(a)ra (?) – O'n o'qqa (qabilaga?) oid (O'n o'qdan chiqqan) qora*". Jamiyatning quyi qatlamini bildiruvchi birlik sifatida izohlangan mazkur so'zning etimologiyasi mo'g'ul tilidagi *egal* so'zi bilan qiyoslanadi va bir qator tadqiqotchilar tomonidan umumiy etnolingvistik ildizga ega bo'lishi ehtimoli qayd etiladi (Malov 1959, 94; Clauson 1972, 106; Aydin 2016, 292). S. Klauson tomonidan so'zning ma'nosi kengroq tarzda "oddiy xalq vakili, quyi tabaqa odami" tarzida izohlangan bo'lsa, J. Hamilton bu birlikni (fr. gens du commun) "oddiy xalq; omma; quyi tabaqa odamlari" ekvivalenti bilan talqin qiladi (Manuscripts ouigours 1986, 214). E. Aydin qadimgi turkiy yozuvlar materiali asosida *igil* so'zining hozirgacha yetib kelgan yagona qo'llanishi aynan runik yodgorliklarda emas, balki qadimgi uyg'ur tiliga mansub dialektal qatlamda uchraydigan ayrim izlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi (Aydin 2016, 292). Bu esa so'zning hududiy-dialektal tarqalishi hamda ijtimoiy funksiyasini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur birlikning aynan "oddiy xalq"ni bildiruvchi *qara* atamasi bilan birikishining o'zi ham muhim semantik-ijtimoiy ko'rsatkichdir. Bunda *qara* so'zi "oddiy, sodda" ma'nosida ishlatilgan deb taxmin qilish mumkin. Shuning uchun Chatchikey bitigida *qara igil* birikmasi mazkur semani kuchaytiruvchi, ijtimoiy mansublikni yana-da ochiq ifodalovchi birlik sifatida talqin qilinishi mumkin. *qara + igil* birikmasi qadimgi turkiy jamiyatning sotsial tuzilishi, tabaqalanish tizimi hamda etnosotsiologiyaviy terminologiyasini tadqiq etishda muhim material sifatida baholanib, qadimgi turkiy tilning leksikasida ijtimoiy mansublikni aniq belgilovchi konstruktsiyani hosil qilganini ko'rsatadi.

### Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara bas'*ning tahlili

Xoyt Tamir (Tayhar-Chuluu) II bitigining 3-satrida uchraydigan *qara bas'* iborasi runik matnlarda bir marta aniqlangan: "(1) *bäc'in yil yätinč ay bäs yägirm* (2) *ikä bäs balıq(?)qa bardıy?* (3) *qasuy? qara bas'iy yaylat<d>im küztä toñin taşqa ärtim* (4) *toñin? İt'ıj al'ıp barır män köñülüg? buy'ruq?*<sup>3</sup> – (1) Maymun yili yettinchi oyining o'n

<sup>1</sup> Qirg'izistonning Talas vodiysidagi o'rta asr turkiy qabilalariga oid arxeologik yodgorliklar XIX asr oxirida nashr etilgan ilmiy nashrlar orqali ma'lum bo'lgan. Bu yodgorliklar orasida Turk xoqonligi davriga oid shaharlar, qo'rg'onlar, balballar va qoyatosh rasmlari bor. Eng muhim topilmalar turkiy runiga o'xshash harflar bilan o'yilgan yozuvlardir. (*Bu uchun qarang*: Tabaldiyev va b. 2023, 176-196).

<sup>2</sup> Aytib o'tish kerakki, *qara* Xoyt Tamir bitigida yana bir o'rinda tilga olinib, unda *tägin* so'zining epiteti o'laroq ko'zga tashlanadi: "(18) *qara tägin* (Qora Tegin)".

<sup>3</sup> Bitigning tashqi ta'sirlar natijasida zararlangani sababli olimlar va tadqiqotchilar uchun matnlarni sinchkovlik bilan o'rganish imkoniyatini kamaytirishi natijasida uning o'qilishi bo'yicha bir qancha olimlarning turlicha talqinlari mavjud. Biz transkripsion matn bilan tanishgan holda E.Aydin variantini



beshinchi kunida, (2) Besh Baliqqa yetib keldik. (3). Xalqqa yozni Qasuyda o'tkazdirdim va kuzda Toni toshiga (Xoyto-Tamir?) yetib keldim. (4) Men yuragimni olib, buyruq (qo'mondon)". Bitigdagi *qara baš* birikmasining turlicha talqin qilinishi ushbu leksemaning qadimgi turkiy til tizimidagi murakkab semantik qatlamga ega ekanini ko'rsatadi. L.Bazin, D.Klemens nusxalariga tayangan holda *Qarabaš* Sariq daryoning bir irmog'i ekanligini aytadi (Bazin 1991, 218). Uning birikmani geografik atama sifatida, ya'ni joy nomi ma'nosida talqin qilishi matnning ichki konteksti bilan to'liq mos kelmaydi, chunki izohlangan hudud va tarixiy-realiyalar bilan bog'liq dalillar yetarli emas. Aksincha, G.Doerfer, S.Klauson va H.Eren tomonidan ilgari surilgan yondashuv – *qara baš* ning ijtimoiy-status belgilovchi ibora sifatidagi qadimiy shakli ekanligi – til materiallari bilan ko'proq mushtaraklik kasb etadi (Doerfer 1967, 440; Clauson 1972, 643-644; Eren 1999, 211). DLTdagi *qara boš* ning “erkak yoki ayolligidan qat'iy qullarga berilgan nom” deb izohlanishi (DLT III, 240-241)<sup>1</sup> ham ushbu iboraning ijtimoiy tabaqa yoki jamiyatning oddiy qatlamiga nisbatan qo'llanganini tasdiqlaydi.

Shu o'rinda *qara baš* birikmasidagi ikkinchi komponent *baš* ning semantik vazifasiga to'xtalib o'tish to'g'ri bo'ladi. Avvalo aytish kerakki, asl ma'nosi “mavjudotning boshi, anatomik bosh” bo'lgan *baš* leksemasi qadimgi turkiy tilda ma'no kengayishiga uchrashi natijasida qo'shin, qabila va umuman har bir narsaning yuqorisida turgan shaxs yoki narsaga nisbatan ishlatilgan. Mahmud Koshg'ariy ham uni “odamning boshi; umuman olganda, bosh (hayvonlar, o'simliklar, buyumlar va tog'”) ma'nolarida kelishini qayd etadi (DLT III, 165; I, 365). “Qutadg'u bilig”da *baš* so'zi ham birlamchi ham ko'chma ma'nolarda qo'llangan: “*Biligsiz sözi öz başini yäyür* – nodonning so'zi o'z boshini yeydi” (QBN, 253; QBN, 167); “*Nägü tär äšitgil ay älcü başi* – elchilarning boshlig'i nima deydi eshitgin” (QBK, 247<sub>19</sub>). J.Klosonga ko'ra, “*baš* so'zining birinchi ma'nosi yuqorida qayd etilgandek, “inson tana a'zosining kalla qismi”, ko'chma ma'noda esa “qo'shin boshlig'i yoki qo'mondoni” ma'nosini anglatishga xoslangan (Clauson 1972, 375-376). H.Shirin *baš* ni “bir qabila, qavm, jamoa yoki qo'shin rahbari” ma'nosini ifodalashini qayd etadi” (Şirin 2016, 358). Ushbu fikrlarning isboti o'laroq *baš* turk-run matnlarida asosan “boshliq; qavm yetakchisi” ma'nolarida ishlatilgan. Xususan, “*täjri älimkä başda bägimkä bökmädim* – samoviy davlatimga, yo'lboshchi begimga to'ymadim” (Y, 14/3) gapidagi *baš* leksemasi “yetakchi, boshliq” ma'nolariga ishora qiladi.

---

oldik, shuningdek, ba'zi o'rinlarda o'z qarashlarimizdan ham foydalandik (*Bu uchun qarang*: Aydin Erhan 2017, 61–68)

<sup>1</sup> *qara* “Devoni lug'otit turk”da yana quyidagi tarkiblarda qo'llanilib, ularga o'z ma'nosini yuklab keladi: “qora rang ma'nosida (*qara*), har bir qora narsa (*qara*), Xoqoniy podshohlar ma'nosida (*Böyra qara xaqan*), qirg'iy ma'nosida (*qara quš*), Mushtariy sayyorasi ma'nosida (*Qaraquš*), tuya oyog'ining tag atroflari ma'nosida (*qaraquš*), go'r, qabr ma'nosida (*qara orun*), qullarga berilgan nom ma'nosida (*qarabaš*), zaharli bir o't, maysa ma'nosida (*qara öti*), qoramoy, qorayog' ma'nosida (*qarayay*), joy nomi ma'nosida (*Qarasangir*), bir xil nom ma'nosida (*qara-qura*) keladi” (DLT III, 240-241).



O'rxun-Yenisey bitiglari va QBdagi *sübaşı* – “lashkarboshi, qo‘mondon” (To‘n, 31; MCh, 48; QBN, 2936; QBN, 2968); *biña başi* – “mingboshi” (MCh, 6), shuningdek, *bäs yüz başi*, *yüz başi*, *är başi* (Tar, 6-8), *iç sü baş* – “xos qo‘shinboshi” (Y, 39) kabi harbiy unvon – birikmalar tarkibida “boshlig‘i” ma‘nosi bilan qo‘llangan ushbu leksema tarixiy turkcha matnlarda o‘z dennotativ ildizidan uzilmagan holda bir qancha konnotatsiyalarni shakllantirgan. Xuddi shu nuqtayi nazardan (birinchi talqin) *qara baş* komponenti quyi tabaqa vakillarining ichki tuzilmasida mavjud bo‘lgan bir turdagi yetakchini, jamoaning o‘z ichidagi bosh vakili yoki sardorini bildiruvchi termini anglatgani holda, mazkur talqin “qara” leksemasining sotsio-terminologik funksiyasi va *baş*ning qadimiy “yetakchi” ma‘nosi bilan ham mos kelgandek tuyulishi mumkin. Lekin, *qara baş*ning bunday ma‘nosi Xoyt Tamir (Tayhar-Chuluu) II bitigining umumiy mazmuniga unchalik ham mos tushmaydi.

Ikkinchi talqinimizga ko‘ra, Xoyt Tamir II bitigidagi *qara baş* birikmasini tushunishda *baş* leksemasi orqali sinekdoxa — ya‘ni qism orqali butunni ifodalash hodisasi yuz berayotgan bo‘lishi ehtimoli juda yuqori. Qadimgi turkiy tilda *baş*ning dastlabki ma‘nosi “bosh (kalla)” bo‘lsa-da, u ilk davrlardanoq ma‘no kengayishi asosida nafaqat “rahbar, boshliq”, balki tashkil topgan jamoaning o‘zi yoki jamoaga mansub birlikni bildiruvchi umumlashtiruvchi termin sifatida ham qo‘llangan. Ko‘plab qadimgi siyosiy-lisoniy modellarda bosh – jamoaning ramzi, jamoa esa bosh orqali ifodalangan. Shu sababli *baş* ko‘pincha shaxsni emas, balki shaxs orqali jamoani anglatgan sinekdoxik birlik vazifasini bajargan. Shuningdek, Kul Tegin bitigidagi “*başlilyü yöküntürmiş tiziglig sökürmüş* – boshi borni yukuntirgan (boshini egib ta‘zim qildirgan)” (KT, 8) jumlasida qo‘llangan *başlilyü* derivati ham aslida “boshli jamoa” degan umumlashgan ma‘noni anglatadi, bu esa bosh orqali jamoaning o‘zi nazarda tutilganini ko‘rsatadi. Ana shu semantik va nominativ modelni inobatga olgan holda Xoyt Tamir II bitigidagi *qara baş*ni faqatgina “oddiy xalqning sardori” tarzida tushunish tor yondashuv bo‘lib qoladi. Chunki bitigidagi kontekst “*qara başiy yaylatdim*” mazmun jihatidan alohida shaxsga nisbatan emas, balki butun jamoaga nisbatan amalga oshiriladigan harakatni bildiradi. Yozni yuqoriga ko‘chirish, yaylovga chiqarish kabi faoliyatlar jamoaviy jarayon bo‘lgani sababli, *baş*ni jamoaning o‘zi bilan tenglashtirish tabiiy talqin bo‘ladi. Bu yerda *baş* “boshliq” emas, balki bosh orqali ifodalangan “xalq”ning o‘zini bildiradi. Ya‘ni *qara baş* – “qara budun”ning sinonimiy variantidir, qism orqali butunni anglatuvchi sotsio-lisoniy model asosida shakllangan birlikdir.

Qolaversa, so‘zning bunday (sinekdoxik) usulda ko‘chish hodisasi umumturk-run leksik imkoniyatlari uchun xosdir. Xususan, *til* istilohi ko‘k turk yozuvlarida “asir, ma‘lumot yig‘ish uchun asirga olingan shaxs” ma‘nosini ifodalab kelgan. Uni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin: “*kälmäz ärsär, tiliy sabiy ali olur tädi* – kelmas bo‘lsa, til tutib ma‘lumot olib tur, dedi” (To‘n, 32); “*tiliy kältürdi sabi* – til tutib keltirdi, so‘zi” (To‘n, 36). A.Donuk (Donuk 1982, 104) hamda A.Gul (Ekrem 2014, 27-103) *til* so‘zini



“urushda dushman tomonidagi yangiliklar uchun ushlab turilgan odam, asir va josus” sifatida izohlaydi. Bundan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan *qara boř* (“oddiy inson, qul”) birikmasi ham aynan shu semantik mexanizmni tasdiqlaydi: *boř/bař* xususiy belgidan ko‘ra ijtimoiy guruhni bildiruvchi indikator sifatida ishlatilgan. Shu sababli Xoyt Tamir II matnidagi *qara bařni* “oddiy xalq jamoasi”, “avom qatlam” yoki “quyi tabaqa jamoasi” tarzida talqin qilish til materiallariga ham, kontekstga ham, qadimgi turkiy semantik modellar ruhiga ham to‘la mos keladi. Demak, Xoyt Tamir II bitigida uchraydigan *qara bař* iborasi ko‘chmanchi turkiy jamiyatning ichki tuzilishida mavjud bo‘lgan “avom xalq”, “oddiy aholi” yoki “past tabaqa vakillari”ni bildiruvchi termin sifatida talqin qilinishi ilmiy jihatdan eng asosli va kontekstuallik nuqtayi nazaridan eng mos keladigan xulosa bo‘lib chiqadi.

**Xulosa.** Qadimgi turkiy bitiglarda keng qo‘llangan *qara* leksemasi faqat rang nomi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-sotsial, etnoleksema va atributiv funksiyalarni bajargan ko‘p qatlamli til birligi sifatida namoyon bo‘lishi manbalarda o‘z aksini topadi. O‘rganilgan manbalar, xususan, Xoyt Tamir – Tayhar Chuluu bitiglarini misolida *qaraning* jamiyatning quyi tabaqalarini belgilovchi sotsionim sifatidagi qo‘llanilishi, qabila va urug‘ nomlariga bog‘langan etnoleksema hamda ba‘zi shaxs nomlari tarkibida “ulug‘lik”, “qudrat”, “kuch” ma‘nolarini anglatuvchi epitet vazifalari mavjud bo‘lgan. Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara bař* birikmasi runik korpusda yagona o‘rin egallashi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, tahlil shuni ko‘rsatdiki, mazkur birlikni geografik nom sifatida talqin qilish matn konteksti bilan mos kelmaydi. Aksincha, boshqa runik manbalarda uchraydigan *qara budun*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* kabi birliklar bilan semantik uyg‘unligi *qara bařni* ham aynan jamiyatning oddiy ommasi, ya‘ni avom (xalq)ni bildiruvchi sotsionim sifatida izohlash imkonini beradi. Bu holat dasht turklari jamiyatida “qora” komponentining ijtimoiy tabaqalanish, siyosiy struktura va hokimiyat-subordinatsiya munosabatlarini ifodalovchi barqaror determinativ unsur bo‘lganini tasdiqlaydi.

Izlanishlar ko‘rsatadiki, *qara* leksemasi qadimgi turkiy til tizimida uch asosiy semantik yo‘nalishda faol bo‘lgan: 1) denotativ rang ma‘nosi, 2) ijtimoiy-sotsial konnotativ ma‘no, 3) antroponimik, gidronimik va etnonimik atributiv ma‘no. Ayniqsa, Xoyt Tamir bitigidagi *qara bařning* aniqlanishi til tarixida ilgari qayd etilmagan yangi qatlamni ifodalab, runik matnlar leksikasini yanada boyitadi. Mazkur tadqiqot natijalari qadimgi turk jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, rang-simvolik tafakkuri va etnosotsial terminologiyasi haqida yangi ilmiy xulosalar berib, *qaraning* determinativ funksiyasi turk runik epigrafikasida o‘ziga xos barqaror kategoriya sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, bitig materiallari asosidagi tahlillar turkiy tilning tarixiy lug‘atini to‘ldirishga va rang asosidagi qadimiy nomlash tizimining lingvokulturologik qirralarini yanada yoritishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т. Ўқитувчи. 1982– Б. 126, 132–133.



2. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // Живая старина. 1896. Т. 6. Вып. III–IV. С. 277–456.
3. Aydın Erhan. *Hoyto-Tamir (Tayhar Çuluu) Yazıtlarının Türkçenin Söz Varlığına Katkileri*. Ankara, 2013 – S. 147-152.;
4. Aydın Erhan. Hoyto–Tamir (Tayhar–Çuluu) Yazıtları Türkbilig, 2017/33: 1-14.
5. Azzaya B. Taikhar Çuluu Yazıtı. *Türkbilig* 23, 2012 – S. 61–68.
6. Badam Azzaya (2007), “Tayhar Çuluunu runi biçees”, *Acta Historica Mongolica*, 8/9: 68–75.
7. Badam Azzaya (2012), “Taikhar Çuluu Yazıtı”, *Türkbilig*, 2012-23: 61–68.
8. Bakır M. M. (2021). Hoíd Tamir yazıtlarının içerik özelliklerine göre tasnifi ve Hoíd Tamir X yazıtı üzerine anlamlandırma denemesi. *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi*, 10(4), 1271-1281
9. Баттулга Ц. Монголын руни бичгийн бага дурсгалууд. Улаанбаатар. – 2005 (1-2-3)
10. Bayraktar N. Kara ve siyah renk adlarının türkçedeki kavram ve anlam boyutu üzerine. *Dünyada Türkçe Öğretimi 6sempozyumu*. 15-16 Nisan 2004, Ankara. 56-76.
11. Bazin, L. 1991. *Les systèmes chronologiques dans le monde turc ancien*. Budapest: Akadémiai Kiadó. Türkçesi: *Eski Türk Dünyasında Kronoloji Yöntemleri*. Çev.: V. Köken, Ankara, 2011: Türk Dil Kurumu. 218.
12. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I-III. – М-Л., 1950
13. Бобоёров. Ф. Фарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;
14. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903.
15. Clauson G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University. 643-644.
16. Дадабаев. Х. Отношения общественно-политических терминов, зафиксированных в старотюркских письменных памятниках // Адабий мерос, 1991. – Б. 76-82.
17. Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neupersischen. Aus IV Bd. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH. – Bd. II. – 1965. – 671 s., Bd. III. – 1967. – 670 s., Bd. IV. 1975. – 640 s.
18. Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.
19. DLT – Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.
20. Dushmanov M. O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.
21. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
22. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003. – 295 s.



23. Ekrem G. Babürname'de Geçen Askeri Terimler Üzerine. – Belleten, 2014. – S. 27-103.
24. Gabain A. (von) Vom Sinn symbolischer Farbenbezeichnung // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae. 1962. T. XV. Fasc. 1–3. S. 111–117.
25. Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri. Türkçe çev. M. Akalın. – Ankara: TTK, 1988. – S. 44.
26. Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – S. 133.
27. Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara, 2002. – S. 121.
28. Harmatta J., Litvinsky B. A. Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // HCCA. – Paris 1996. – Vol. 3. – P. 367–401.
29. Hasan Eren 1999. *Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü*. Ankara. 211.
30. Kafalı, Mustafa (1996). “Türk Kültüründe Renkler”. Nevruz ve Renkler. Haz. Sadık Tural ve Elmas Kılıç. Ankara: AKM Yay. 49-54.
31. Kaşıkçı O. Eski Türklerde Devlet Başkanlığı – Hakanlık. Türkler. Cilt 2. – Ankara, 2002. – S. 888.
32. Киличов Н. Қадимги туркий тилдаги синоним компонентли жуфт отлар семантикаси («Олтун ёруғ» асари мисолида). 2020. – Б. 41
33. Кляшторный С. Г. Имперский фон древнетюркской цивилизации // Вестник МИЦАИ. – Самарканд, 2008. – Вып. 8. – С. 14–20.
34. Кляшторный С. Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – 591 с.
35. Кононов А. Н., О значении слова «кара» в тюркском языке. Тюркологическая сборник. – Москва, 1965 – С. 78.
36. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // Тюркологический сборник. 1975. Памяти С.Е. Малова / ред. кол.: А.Н. Кононов (отв. ред.), С.Г. Кляшторный, Ю.А. Петросян, С.С. Цельникер. М.: Наука, 1978. С. 159–179.
37. Крадин Н. Н., Скрынникова Т. Д. Империя Чингис-хана. – М.: Вост. лит., 2006. – С. 132– 133.
38. Лезина И.Н., Суперанская А.В. Ономастика: словарь-справочник тюркских родоплеменных названий: в 2 ч. М.: Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая РАН, 1994. Ч. 1–2. 466 с.
39. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. М.-Л., 1959. С.46-54.
40. Марков Г. Е. Кочевники Азии. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С. 47–48.
41. Németh Gy. A honfoglaló Magyarság kialakulása / közzéteszi Á. Berta. Második, bővített és átdolgozott kiadás. Budapest: Akadémiai Kiadó, 1991. 397 ol.
42. Ömer Soner H. “Tegin”, DİA, XL, – İstanbul. 2011. – S. 312.
43. Orhun H.N. Hoytu Tamir yazitlari // Eski Turk Yazitlari, İstanbul, 1939, T-2. s. 105-117.
44. Osman Fikri Sertkaya -Sartkocaullı Harcavbay.Hoyto Tamir (Moğolistan)'dan yeni yazitlar (ön neşir). 313-346.
45. О‘ТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2007. III. – 687 б.



46. O'XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан. 1971. – 409 б.
47. Пэрлээ Х.Тайхар чулуу // Археологийн судлал. Studio Archaeologica. Tomus I, Fasc 4, Улаанбаатар, 1960, х. 1-26.
48. Pritsak O. «Qara», Studie zur türkischen Rechtssymbolik // 60. Doğum Yıldönümü Münasebetiyle Zeki Velidi Togan Armağan / Symbolae in Honorem Z.V. Togan. İstanbul, 1950–1955. S. 239–363.
49. Pritsak O. Orientierung und Farbsymbolik: Zu den Farben- bezeichnungen in den altaischen Volkernamen // Saeculum. 1954. Bd. 5. S.376–383.
50. Pritsak, 1980:17–18; Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş... – S. 119.
51. QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru‘l-kutub va‘l-vasāiki‘l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
52. QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg‘ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi 1809).
53. QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
54. Radloff W. Die Inschriften am Choito-Tamir // Die Altürkischen Inschriften der Mongolei. Dritte Lieferung Die Denkmäler von Koscho-Zaidam, die ubrigen denkmaler des Orchon bechens und denkmaler im flussgebiete des Jenissei. St.Petersburg, 1895. p. 260-268.
55. Radloff, W. (1895), Die altürkische Inschriften der Mongolei, St.–Petersburg. 260-268.
56. Ramstedt G. J., Grano J. G. und Pentti Aalto // Journal de la Societe Finno-Ougrienne, Helsingfors, 1958, pp. 62-76.
57. Ritchev B. Les dessins pictographiques et les inscriptions sur les rochers et sur les steles en Mongolie. Corpus Scriptorum Mongolorum Instituti Linguae et Litterarum Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici, Tom. 16, Fasc. 1, Улаанбаатар. 1968, 34-36 т.
58. Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 260-296.
59. Sertkaya, Osman F. – S. Harcavbay (2001), “Hoyto–Tamır (Moğolistan)’dan Yeni Yazıtlar (ön neşir)”, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı–Belleten, 2000: 313–346.
60. СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – М., 2001.
61. Şirin H. Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi. TDK yayınları. – Ankara. 2016. – 395 s.
62. Tabaldiyev K, Hermann L., Tişin V., Jeleznyakov B. Kenkol’daki (Talas vadisinin yukari kesimi) yeni run benzeri yazılar. Orta Asya’daki Eski Türk Yazıtları. Ziya Bünyadov Armağanı. Astana: Uluslararası Türk Akademisi / Uluslararası Orta Asya Araştırmaları Enstitüsü, 2023. – 238 sayfa. 176-196.
63. Thomsen V. Inscriptions de l’Orkhon déchiffrées. Helsingfors: Impr. de la Société de littérature finnoise, 1896. 224 p. (Mémoires de la Société Finno-ougrienne. T. V).
64. Togan İ., Kara G., Baysal C. Çin kaynaklarında Türkler. Eski T’ang Tarihi. – Ankara: TTK, 2006.



65. Тимохин Д.М., Тишин В.В. Маркер кара в тюркской этнонимике XII в. // Золотоордынское обозрение. 2024. Т. 12, № 1. С. 8–19.
66. Хирождидова М. (2022) Проблема коннотативного значения прилагательного цвета «черный» и использования в программных целях. Образование и инновационные исследования, №8. 89-92.
67. Yıldırım K. Bozkırın Yitik Çocukları Juan-Juan'lar. – Istanbul: Yeditepe Yayınevi, 2015. – S. 84.
68. Шювен П. О Византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (Проблемы ономастики и топонимики) // ОНУ, 1995. – № 1–3. – С. 34.

**Qisqartmalar.**

BA – Bilga Atachim bitigi  
 BX – Bilga xoqon bitigi  
 HO‘AT – Hozirgi o‘zbek adabiy tili  
 KT – Kul Tegin bitigi  
 MCh – Mo‘yun Cho‘r bitigi  
 OY – “Oltun yorug‘”  
 sans. – sanskritcha  
 To‘n – To‘nyuquq bitigtoshi  
 xit. – xitoycha  
 Y – Yenisey bitiglari

**“ALPOMISH” DOSTONIDA LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARNING  
 TAHLILI MASALALARI**

**SHAXNOZA ASQAROVA**  
*Tadqiqotchi, PhD, TDSHU*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugunning dolzarb masalalaridan – til va madaniyat, ularning o‘zaro munosabatlari, o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an‘analarini mujassamlagan nodir asar “Alpomish”ning inglizcha tarjimasidagi takrorlarning lingvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Noqardosh ikki til orasidagi ko‘prik bo‘lmish tarjimonning bu boradagi qobiliyati, tarjima qiyinchiliklari va ularni bartaraf qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, takror, so‘zlar raqsi, qiyinchilik, mulohaza.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются актуальные вопросы современности – языка и культуры, их взаимоотношения, лингвокультурные аспекты повторов в английском переводе редкого произведения «Алпомиш», воплощающего национальные обычаи и традиции узбекского народа. Приводятся умения переводчика, являющегося мостом между двумя неродственными языками, а также предложения и рекомендации по трудностям перевода и их устранению.*